

KELING, NAMOZ O‘RGANAYLIK

*Parvardigorimiz bo‘lmish Alloh
bilan aloqa saqlaylik*

Sayyid, Kamol, 1939 -
KELING, NAMOZ O'RGANAYLIK, Parvardigorimiz bo'lmish Alloh
bilan aloqa saqlaylik/ Muallif: Kamol Sayyid. – Qum: Ansoriyon, 2008.
56 Bet.

Kitobning asliy nomi: تعالوا نصلّى

ISBN: 978-964-438-983-2

1. Namoz – islom – o'quv va ta'livot.
297.35307

I. Hom.
BP147.7

تعليم الصلاة (باللغة الاوزبكية)

KELING, NAMOZ O'RGANAYLIK

Parvardigorimiz bo'lmish Alloh bilan aloqa saqlaylik

Muallif: Kamol Sayyid

Tarjimon: «*Andishai nur*» nomli muassasaning tarjimonlar
guruhi

Hoshir: Ansoriyon nashriyoti

Matbaa: Nigiyn

Shop navbati (Birinchi): 2008 - 1429 - 1387

Adadi: 3000 nusxa

Betlar soni: 56

ISBN: 978-964-438-983-2

©Kitobning barcha huquqlari noshir uchun himoyalangan



ANSORIYON NASHRIYOTI

Eron Islom Jumhuriyati, Qum shahri,

Shuhado xiyoboni, 22-kucha.

Pochta qutisi: 187

Telefon: 0098 251 7741744 Faks: 7742647

E- mail: ansarian@noor.net & ansarian@yahoo.com

www.ansariyan.org & www.ansariyan.net



Bismillahir Rohmanir Rohim.

Borliq ato etuvchi va Rahmli Alloh nomi bilan

KIRISH QISMI

Ey Olamlarning Yaratguvchisi! Senga hamdu-sano aytish bilan boshlayman. Sen Mehribonsan va Sen madad Berguvchisan, ey Parvardigorimiz! Sendangina madad so‘raymiz, Sening ne‘matlaring tufayli tirikmiz va Sen (Allohsan) Tangrisan ... ey mehribonlarning eng Mehriboni bo‘lgan Zot, Oliy martabali va Yuksakdirsan. Dengizlar va tog‘larning toshlari senga hamdu-sano aytish bilan «ey jalol va buyuklik Egasi» deb nido qilurlar, ey Yuksak, Ulug‘ va Pokiza bo‘lgan yaratguvchi Zot.

NAMOZ NIMA?

Azizlar, Namoz Allohga yuzlanib, Undan qo‘rqqan holda Unga sajda qilib ... va Undangina rizoligini talab qilishdan iborat.

U keng borliqni kichik zarradan boshlab to buyuk sayyoralargacha yaratgan Zotdir.

Bizlarni baxtli yashashimiz uchun yaratgan.

Va bizlarga Payg‘ambarlarni yuborgan, ular bizlarga namoz o‘qishlikni o‘rgatganlar.

Namoz: har kun o‘zimizni unda yuvadigan zilol chashmadir... shu orqali pok bo‘lamiz.

Ey azizlar! Kelinglar Parvardigorimiz uchun qanday namoz o‘qishlikni o‘rganaylik; kelinglar namoz o‘qiylik!

USULIDDIN

Azizlar! Dinimiz mustahkam ildizga ega bo‘lgan go‘zal daraxt bo‘lib, uning shoxlari yam-yashil barglar va shirin mevalarga to‘lib toshgandir.

Dinning ildizi usuliddin bo‘lib, u quyidagilardan iborat:

Tavhid (Yakka Xudolik)

Alloh Yagonadir va Undan o‘zga iloh yo‘q... shuning uchun deymiz:

لا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ

Adl

Alloh Odil Zot bo‘lib, hech kimga zulm qilmaydi va zolim kimsalarni yaxshi ko‘rmaydi.

Nubuvvat (Payg‘ambarlik)

Alloh bizlarni saodat yo‘liga chorlash uchun payg‘ambarlarni yubordi va Payg‘ambarimiz Muhammad *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* ularning oxirgisidir.

Imomat (Rahnamolik)

Alloh taolo Payg'ambarimizdan so'ng insonlar gumroh bo'lmasliklari va hidoyat yo'lini topishliklari uchun o'n ikki Imomni bizlarga Peshvo, Rahbar va Yo'l boshchi etib tanlagan, shuning uchun ular Payg'ambarimizdan keyin bizlar uchun rahnamo va o'rnakdirlar. Ularning birinchisi imom Ali *(alayhis salom)* va oxirgisi esa Mahdi *(Alloh kelishlarini tezlashtirsin)* dirlar.

Ma'od (Qayta tirilish)

Alloh taolo olamni behuda yaratmagan va insonni nobud bo'lishi uchun yaratmagan...

Bir kun keladiki, Alloh taolo u kunda insonlarning barchasini qabrlaridan qayta tiriltiradi... Nima uchun? Hisob-kitob uchun.

Pokiza va yaxshi insonlar jannatga borurlar va yomon insonlar esa jannatga bormay, jahannam tomon ravona bo'lgaylar.

FURUIDDIN

Pokiza Islom dinining samarali va barakali daraxtining shoxlari furuiddin bo‘lib, u quyidagilardan iboratdir:

Namoz

Har bir musulmon har kuni besh marta: ertalab, tushda, asr, oqshom va xufton vaqtlarida namoz o‘qiydi.

Ro‘za

Balog‘at yoshiga yetgan musulmon muborak Ramazon oyida ro‘za tutib, Allohning farmonini bajarish uchun bu ulug‘ oyda eb-ichishdan saqlanadi.

Zakot

Har bir musulmon, kambag‘al va faqir insonlarga zakot beradi... Alloh taolo o‘ziga to‘q va boy musulmonlardan faqir va kambag‘allikda hayot kechiradigan birodariga ko‘maklashishini va shuning bilan birgalikda har bir inson saodatli hayot kechirishini istaydi.

Xums

Har bir musulmon mehnat qilib topgan daromadining 20%ni Payg‘ambarimizning faqir- muhtoj zurriyotlari (sayyidlar)ga Payg‘ambarimizni e‘zozlab va u kishining Ahli-Baytlari-xonadonlariga bo‘lgan muhabbati uchun berishi lozimdir, chunki sadaqa ularga haromdir.

Haj

Safar qilishga kuch-qudrati yetgan musulmon Baytullohil-haromni ziyorat qilishi uchun yo‘lga tushadi va u yerda haj amallarini bajaradi.

Jihad

Har bir musulmon, insonlarning barchasi ozod va aziz yashashligi uchun Alloh va insoniyat dushmanlariga qarshi kurashadi.

Amri ma‘ruf (Yaxshilikka buyurish)

Har bir musulmon yaxshi ishlarni qilguvchi va insonlar uchun yaxshilikni istaguvchi va insonlarni yaxshi amallar tomoniga chorlab, ularga nasihat qilishi zarurdir.

Nahyi munkar (Yomonlikdan qaytarish)

Har bir musulmon gunohga yo‘l qo‘ymaydi va dindagi birodarlarini gunoh qilmaslikka chaqirib, musulmonlar jamiyati pokiza hayot kechirishini istovchidir.

Tavalliy (Do‘stlashish)

Har bir musulmon Allohning valiylarini va Uning musulmonlar hidoyatda bo‘lishlari uchun tanlagan yo‘lboshchilarini qalban do‘st tutib, ularga ergashadi.

Tabarriy (Yuz o‘girish)

Har bir musulmon Alloh va Uning yo‘llagan elchilariga qarshi dushmanlik qilgan kimsalardan yuz o‘girib, ularga qarshi oyoqqa turishi lozim.

Payg‘ambarimiz Muhammad ^(sallallohu alayhi va olihi vasallam) buyuradilar:

الصَّلَاةُ عَمُودُ الدِّينِ

«Assalaatu amudud-diyn»

(Namoz dinning ustunidir.)

Agar din shodir bo‘ladigan bo‘lsa, uni ushlab turguvchi ustuni namozdir. Har goh ustun yiqilsa, shodir ham yiqilguvchidir.

الصَّلَاةُ قُرْبَانُ كُلِّ تَقِيٍّ

«Assalaatu qurbaanu kulli taqiyyin»

(Namoz har bir parhizkor insonni Alloh dargohiga yaqin qilguvchi vositadir.)

Siz do‘stingizni ko‘rishga borganda unga bo‘lgan muhabbatigizni bir dasta gul orqali izhor qilasiz. Shunday ekan, namoz ham bir dasta gul bo‘lib, iymonlik inson uni o‘z Parvardigoriga taqdim qilishi bilan muhabbatini izhor qiladi.

أَحَبُّ الْأَعْمَالِ إِلَى اللَّهِ الصَّلَاةُ لَوْ قَبِلَهَا

«Ahabbul a‘maali ilallohi assalaatu livaqtihaa»

(Allohning dargohida eng sevimli amal, o‘z vaqtida o‘qiladigan namozdir).

الصَّلَاةُ مِفْتَاحُ الْجَنَّةِ

«Assalaatu miftaahul jannati»

(Namoz jannat kalitidir).

Agar jannat kalitiga ega bo‘lmasak, Allohning jannatdagi noz-ne‘matlaridan mahrum bo‘lamiz. Holbuki, hammamiz jannatga kirishga mushtaq bandalarmiz.

Namoz Alloh bilan banda o‘rtasidagi do‘stlik aloqasini bog‘lashdir.

Biz sarvarimiz va yo‘lboshchimiz bo‘lmish imom Ali (*alayhis salom*)ni yodga olganimizda, «karramallohu vajhahu» ya‘ni: Alloh uning chehrasini ulug‘lab, karomatli qildi, deymiz; nima uchun? Chunki, u zot hech vaqt butga sajda qilmagan edilar ...

Alloh taolo sarvarimiz Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ni Payg‘ambar qilib tanladi va insonlar hidoyati uchun yubordi. O‘sha zamondan beri Ali (*alayhis salom*) Alloh uchun namoz o‘qir, namozni sevar va namoz vaqtiga mushtaq edilar.

Payg‘ambarimiz Madinai Munavvaraga hijrat qilgan zamonlarida, Ali (*alayhis salom*) Islom hukumatini himoya qilish uchun qo‘llariga qurol oldilar... va o‘nlab janglarda qatnashgan bo‘lib, Dovyurak, Mujohid va Qo‘rqmas edilar, hatto jangli lahzalarda ham namozlarini o‘z vaqtida o‘qishni kechiktirmas edilar. Shunday bir inson edilarki, o‘n yoshlarida urushda jarohatlangan vaqtlarida ham olamlar Parvardigori Alloh uchun namoz o‘qiganlar.

Hatto Ali(*alayhis salom*) umrlarining 60 yoshi o‘tganida ham Alloh yo‘lida jihod qilar edilar. Janglardan biri «Siffiyn» jangida, Imom qattiq jarohatlandilar va kamon o‘qi oyoqlariga kiradi va tabib o‘qni chiqarish uchun urinadi. Lekin Imom(*alayhis salom*) qattiq dardni his qilganliklari uchun o‘q oyoqlarida qoladi. Bu holatni ko‘rgan tabib, o‘g‘illari imom Hasan (*alayhis salom*)ni ushbu voqeadan ogoh qiladi va imom Hasan (*alayhis salom*) otalarini yaxshi tanir edilar va bilardilarki, otalari Allohga yuzlanib namozga turgan vaqtlarida, atroflarida bo‘lib o‘tayotgan hech bir narsani sezmasdilar. Va shuning uchun tabibga: Namoz o‘qishlarini kuting, o‘sha vaqtdagina o‘qni oyoqlaridan chiqara olasiz, deydilar.

Darhaqiqat, tabib ham imom Ali(*alayhis salom*) namoz o‘qib turgan lahzalarida o‘qni oyoqlaridan chiqaradi. Imom Ali (*alayhis salom*) hech qanday dardni his qilmasliklari, tabibni hayron qoldiradi! Shubhasiz, namoz hazrat Ali (*alayhis salom*)ni qo‘rqmas, jangchi, dovyurak va Alloh yo‘lida jihod qiluvchi qilib tarbiyalagan edi.

Shuning uchun sarvarimiz Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) **hazrati Ali** (*alayhis salom*)**ni do‘st tutar edilar, chunki, Ali** (*alayhis salom*) **har bir iymonli musulmon uchun namuna bo‘lib, Alloh va Uning Payg‘ambarini sevar, Alloh va Uning Payg‘ambari ham Ali** (*alayhis salom*)**ni sevar edilar.**

VUZU

Suv pokizalik ramzidir va inson o‘yqudan o‘yg‘ongandan so‘ng ikki qo‘lini va yuzini yuvadi.

Payg‘ambarimiz Muhammad (sallallohu alayhi va olihi vasallam) buyuradilar:

التَّطَافَةُ مِنَ الْإِيمَانِ

«Annazofatu minal iymaani»

(Pokizalik iymondandir).

Vuzu yuzni va ikki qo‘lni yuvib, boshga va ikki oyoqqa mas’h tortishdan iboratdir.

Umuman olganda, bunday amalni bajarish nima uchun kerak?

Javob: chunki, vuzusiz namoz sahih (to‘g‘ri) bo‘lmaydi.

Vuzu olish shartlari

1. Pok suv bilan vuzu olish kerak, chunki, najas suv bilan olingan vuzu botildir.

2. «**Mutlaq**» suv bilan vuzu olish kerak, chunki, «**muzof**» suv bilan olingan vuzu botil hisoblanadi.

3. «**Muzof**» suv: Sof suvdan farqlanib, boshqa narsalar bilan aralashgan suvga aytiladi; masalan: Gulob, sovun suvi va yo tuproqqa aralashgan suv va shular kabi.

4. «**Muzof**» bo‘lmagan sof va toza suvga «**mutlaq**» suvi deyiladi.

5. Vuzu olinadigan suv «**muboh**» bo‘lishi kerak; ya’ni: «**g‘asbiy**» va egasi rozi bo‘lmagan suv bo‘lmasligi kerak, chunki, «**g‘asbiy**» suv bilan olingan vuzu botil bo‘ladi.

6. Vuzu olinayotgan vaqtda ishlatiladigan idish «**muboh**» bo‘lishi kerak, chunki, «**g‘asbiy**» va egasi rozi bo‘lmagan idishda olingan vuzu botil bo‘ladi.

7. Oltin va kumushdan yasalgan idishda vuzu olib bo‘lmaydi.

8. Vuzu olganda, Allohga yaqinlashish va Uning farmonini bajarishni niyat qilish lozim, niyat tilga olinishi shart emas, balki qalbida ham niyat qilsa, kifoyadir.

9. Vuzu tartib bilan olinishi kerak; ya’ni birinchi yuz, so‘ng o‘ng qo‘l, keyin chap qo‘lni yuvib... suratda ko‘rsatilgan tartibda bajarish lozim.

10. Olinadigan vuzu amallari ketma-ket bo‘lishi kerak, masalan: Yuzni yuvgandan so‘ng, necha daqiqa kutib turib, ikki qo‘lni yuvish joiz emas, balki ketma-ket bajarish lozim.

11. Har bir shaxs vuzu amallarini boshqadan yordam olmasdan, ko‘mak talab qilmasdan, o‘zi bajarishi lozim.

12. Suv vuzu oluvchi insonning a‘zosiga zarar qilmasligi kerak.

13. Suv vuzu a‘zolariga to‘liq yetishi kerak, ya‘ni: Suv teriga yetib borishining oldini oladigan to‘siq bo‘lmasligi kerak, masalan: Moyli ranglar va shular kabi suvni to‘sadigan narsalar, vuzu olganda yuviladigan a‘zolarida bo‘lmasligi lozim.

14. Vuzu olish va namoz o‘qish uchun yetarli vaqt bo‘lishi zarur va agar namoz vaqtining tugashiga juda oz qolgan bo‘lsa, vuzu o‘rniga «**tayammum**» qilish kerak.

Vuzuni botil qiladigan narsalar

- 1.** Insondan siydik yoki g‘oit chiqishi
- 2.** Osh qozon va ichak yellarining chiqishi
- 3.** Uyqu

Qanday holda vuzu olinadi?

1. Yuzni peshananing yuqori qismidan (ya'ni: Soch chiqqan joyidan) jag'ning ostigacha yuvish lozim.



2. So'ngra o'ng qo'l tirsakning yuqori qismidan barmoqlarning uchigacha yuviladi.



3. Chap qo'l ham, o'ng qo'ldek yuviladi.



4. Suratda ko'rsatilganidek, o'ng qo'l bilan boshning oldingi qismiga mas'h tortiladi.



5. O'ng qo'l bilan, o'ng oyoqqa; barmoqlarning uchidan oyoqning ko'tarilish qismigacha mas'h tortiladi.



6. Suratda ko'rsatilganidek, chap qo'l bilan chap oyoqqa barmoqlarning uchidan boshlab, yuqori qismigacha mas'h tortiladi.



Vuzu olganda o'qiladigan duolar

Suvni ko'rganda:

بِسْمِ اللَّهِ وَبِاللَّهِ الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي جَعَلَ الْمَاءَ طَهُوراً وَ لَمْ يَجْعَلْهُ نَجْساً

«Bismillahi va Billaahi Alhamdulillahil laziy ja'alal maa'a tahuran va lam yaj'alhu najasan»

(Alloh nomi bilan va Alloh bilan boshlayman, barcha hamd-maqtov suvni pok qilgan va uni najas qilmagan yolg'iz Allohga xosdir).

Ikki qo'lninig kafini yuvganda:

اللَّهُمَّ اجْعَلْنِي مِنَ التَّوَّابِينَ وَاجْعَلْنِي مِنَ الْمُتَطَهِّرِينَ

«Allohummaj'alniy minattavvaabiyna vaj'alniy minal mutatahhiriyna»

(Xudoyo! Meni tavba qilguvchilardan qil va meni pok bo'lguvchilardan qilgin!)

Og'izni chayqagandan so'ng:

اللَّهُمَّ لَقْنِي حُجَّتِي يَوْمَ الْقَاكِ وَأَطْلِقْ لِسَانِي بِذِكْرِكَ

«Allohumma laqqiniy hujjatiy yavma alqoka va atliq lisaaniy bizikrika»

(Xudoyo! Sen bilan uchrashgan kunimda hujjat va dalilimni menga o'rgat va tilimni zikringga mashg'ul qilgin!)

Buruni chayqagandan keyin:

اللَّهُمَّ لَا تُحَرِّم عَلَيَّ رِيحَ الْجَنَّةِ وَاجْعَلْنِي مِمَّنْ يَشْمُ رِيحَهَا وَرَوْحَهَا وَطِيبَهَا

«Allohumma laa tuharrim alayya riyhal jannati vaj'alniy mimman yashummu riyahaa va ravhahaa va tiybahaa»

(Xudoyo! Jannat hidini menga harom qilma va meni uning xushbuy hidini hidlaydaganlardan qilgin!)

Yuzini yuvganda:

اللَّهُمَّ بَيِّضْ وَجْهِي يَوْمَ تَسْوَدُ فِيهِ الْوُجُوهُ

وَلَا تُسَوِّدْ وَجْهِي يَوْمَ تَبْيَضُ فِيهِ الْوُجُوهُ

«Allohumma bayyiz vajhiy yavma tasvaddu fiyhil vujuhu va laa tusavvid vajhiy yavma tabyazzu fiyhil vujuhu»

(Xudoyo! Yuzlar qoralgan qunda mening yuzimni oq qil va yuzlar oq bo'lgan kunda yuzimni qora qilmagin!)

O'ng qo'lini yuvganda:

اللَّهُمَّ أَعْطِنِي كِتَابِي بِيَمِينِي وَالْخُلْدَ فِي الْجَنَانِ بَيْسَارِي وَحَاسِبِنِي

حَسَاباً يَسِيراً

«Allohumma a'tiniy kitobiy biyaminiy val xulda fil jinnaani biyasaariy va haasibniy hisaaban yasiro»

(Xudoyo! Qilgan amallarim kitobi [nomai amalim]ni o'ng qo'limga bergin va jannatlarda abadiy qolishni so'l tomonimga ato etgin va men bilan qiladigan hisob-kitobni oson qilgin!)

Chap qo‘lni yuvaganda:

اللَّهُمَّ لَا تُعْطِنِي كِتَابِي بِشِمَالِي وَلَا مِنْ وَرَاءِ ظَهْرِي وَلَا تَجْعَلْهَا مَغْلُولَةً
إِلَى عُنُقِي وَأَعُوذُ بِكَ مِنْ مُقْطَعَاتِ النَّيِّرَانِ

«Allohumma laa tu‘tiniy kitaabiy bishimaaliy va laa min varoi zahriy va laa taj’alhaar mag‘lulatan ilaa unuqiyy va a‘uzuu bika min muqatti’aatin niyroni.»

(Xudoyo! Qilgan amallarim kitobi [nomai amalim]ni na chap qo‘linga, na orqa tomonimdan bermagin va qo‘llarimni bo‘ynimga zanjirlab qo‘ymagin, jahannam olovlarining bo‘laklaridan bo‘lgan (azob)dan Sendan panoh surayman!)

Boshga mas‘h tortganda:

اللَّهُمَّ غَشِّنِي بِرَحْمَتِكَ وَبَرَكَاتِكَ

«Allohumma g‘ashshiniy birahmatika va barakaatika.»

(Xudoyo! Meni o‘z rahmating va barakotlaring bilan qamrab olgin!)

Ikki oyoqqa mas‘h tortganda:

اللَّهُمَّ تَبَيَّنِي عَلَى الصِّرَاطِ يَوْمَ تَزُلُ فِيهِ الْأَقْدَامُ وَاجْعَلْ سَعْيِي فِي مَا
يُرْضِيكَ عَنِّي يَا ذَا الْجَلَالِ وَالْإِكْرَامِ

«Allohumma sabbitniy alas siroti yavma tazillu fiyhil aqdaamu vaj’al sa’yii fiy maa yurziyka anniy yazal jalaali val valikrom.»

(Xudoyo! Oyoqlar sirpanib yiqiladigan kunda meni sirot ko‘prigidan o‘tayotganda, sobitqadam qil! Qiladigan sa‘yuharakatimni O‘zingni rozi qiladigan narsa (yo‘l)da qilgin! Ey ulug‘lik va yuksaklik Egasi!)

Vuzu tugagach:

اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ تَمَامَ الوُضُوءِ وَ تَمَامَ الصَّلَاةِ وَ تَمَامَ رِضْوَانِكَ وَ الْجَنَّةَ
وَ الْحَمْدُ لِلَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ

«Allohumma inniy as'aluka tamaamal vuzu'i va tamaamas solaati va tamaama rizvaanika val jannata val hamdu lillaahi Pobbil alamiyn.»

(Xudoyo! Men sendan olgan vuzuning mukammalligini (bexatoligini) va namozning to'liqligini va sening butun rizoligingni va jannatni surayman! Hamdu sano yolg'iz olamlar Parvardigori Alloh uchundir).

Shuningdek, **uch** marta “**Qadr surasi**” va **bir** marta “**Oyatul kursiyni**” o‘qib, payg‘ambarimiz Muhammad (sallallohu alayhi va olihi vasallam) va ul hazratning Ahli-Bayt (xonadonlariga) salavot aytish mustahab amal sanaladi.

TAYAMMUM

Vuzu uchun suv topmaganda yoki namoz o'qish uchun vaqt juda oz bo'lganligi tufayli, vuzu olish mumkin bo'lmaganda va shuningdek, jarohat borligi va yoki ma'lum bir kasalliklar uchun suv, vuzu a'zolariga zarar yetkazadigan bo'lsa, namoz o'qish uchun nima qilish kerak?

Javob: aytib o'tilgan o'rinlarda tayammum qilish kerak.

Tayammum qanday bajariladi?



- 1. Allohning farmonini bajarish uchun tayammum niyati qilinadi.**
- 2. Suratda ko'rsatilganidek, ikki qo'lni pok tuproqqa urmoq lozim.**

3. Suratda ko'rsatilaganidek, ikki qo'l yuzga surtiladi.



4. Chap qo'l bilan o'ng qo'lning ustiga mas'h tortiladi.





5. So'ng, o'ng qo'l bilan chap qo'lning ustiga mas'h tortiladi. Mas'h tortganda bilakdan boshlab, barmoqlar uchigacha tortish kerak. Yuqoridagi ikki suratga qarang.

G‘USL

G‘usl ikki qismga bo‘linadi;

Tartibiy g‘usl.

Irtimosiy g‘usli.

Tartibiy g‘usl:

Tartibiy g‘uslni bajarganda, avval niyat qilib, so‘ngra bosh va bo‘yin yuviladi. Keyin badanning o‘ng tomoni, undan so‘ng esa chap tomoni yuviladi. Ushbu amallar tartib bilan bajarilishi lozim. Agar qasddan yoki bilmay turib va yoki unutgan holda aytib o‘tilgan tartibda bajarilmasa, olingan «g‘usl» botil bo‘ladi.

Irtimosiy g‘usl:

Irtimosiy g‘usl olinganda niyat qilingach, asta-sekinlik bilan suvning ichiga kirilsa va badanning hamma qismlariga suv tegsa, olingan «g‘usl» sahih (to‘g‘ri) bo‘ladi. Lekin dabdurustdan suvga kirish ehtiyot yuzasidan bo‘ladi. «Irtimosiy g‘uslda» agar badan suvning ostida bo‘la turib, «g‘usl» niyati qilingandan so‘ng, badan suv ostida silkitilsa, olingan «g‘usl» sahih (to‘g‘ri)dir.

«G‘usl» olinganda (har ikki qismida) badanning hamma yerlariga suv tegishi lozim va agar Soch tolasining bir miqdori ham yuvilmay qolsa, olingan «g‘usl» botil bo‘ladi.

Lekin quloq va burunning ichi kabi badanning ko‘rib bo‘lmaydigan yerlarini yuvish lozim emas.

Vajib g‘usllar:

Qaysi vaqtlar «g‘usl» qilish vajib bo‘ladi?

Quyidagi o‘rinlarda «g‘usl» qilish vajib bo‘ladi:

1. «Janobat g‘usli»: (inson jinsiy aloqada bo‘lganda va yo erkakdan ba’zi bir suyuqlik chiqqani sababli vajib bo‘ladigan «g‘usl»).

2. «Hayz g‘usli»: (Ayollar har oy ko‘radigan hayz qonidan so‘ng poklanish uchun olinadigan vajib «g‘usl»).

3. «Nifos g‘usli»: (Ayollar bolani dunyoga keltirganidan keyin, nifos qonidan so‘ng olinidigan vajib «g‘usl»).

4. «Istihoz g‘usli»: (Ayollar ma’lum bir kasallik tufayli ko‘radigan qondan so‘ng, namoz o‘qish uchun olinishi vajib bo‘lgan «g‘usl»).

5. «Massi mayyit g‘usli»: (Agar biror kimsa, g‘usl berilmagan jonsiz insonning badaniga tegsa, ya’ni: Badanini mayyitning jasadiga tegizsa, «massi mayyit» g‘uslini bajarishi lozim bo‘ladi.

6. «Mayyit g‘usli»: Musulmon inson vafotidan so‘ng, unga «g‘usl» berish, kafanlash va unga namoz o‘qib ko‘mish har bir musulmonga vajibdir va agar ba’zilar ushbu amallarni bajarsalar, qolganlarning zimmasidan soqit bo‘ladi.

7. «Nazr va qasam» ichish bilan vajib bo‘ladigan «g‘usl».

AZON

Namoz vaqti yetib kelganda, namoz o‘qishdan oldin azon aytish vojibmi?

Javob: Vojib emas, lekin namoz o‘qishdan oldin azon aytish mustahab bo‘lib, u quyidagicha aytiladi:

اللَّهُ أَكْبَرُ

«Allohu Akbar» (4.marta)

(*Alloh Buyukdir!*)

أَشْهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ

«Ashhadu allaa ilaaha illalloh» (2. marta)

(*Guvohlik beramanki, Allohdan o‘zga iloh yo‘q!*)

أَشْهَدُ أَنَّ مُحَمَّدًا رَسُولُ اللَّهِ

«Ashhadu anna Muhammadar Rasurulloh» (2. marta)

(*Guvohlik beramanki, Muhammad (sallallohu alayhi va olihi vasallam)*

Allohning payg‘ambaridir!)

أَشْهَدُ أَنَّ عَلِيًّا وَلِيُّ اللَّهِ

«Ashhadu anna Aliyyav valiyyulloh» (2. marta)

(*Guvohlik beramanki, Ali (alayhis salom) Allohning tanlagan xalifa va peshvosidir!*)

حَيِّ عَلَى الصَّلَاةِ

«Hayya alas solaati» (2. marta)

(*Namozga shoshiling!*)

حَيِّ عَلَى الْفَلَاحِ

«Hayya alal falaah» (2. marta)

(*Najot yo'liga shoshilinglar!*)

حَيِّ عَلَى خَيْرِ الْعَمَلِ

«Hayya alaa xoyril amal» (2. marta)

(*Yaxshi amal tomoniga shoshiling!*)

اللَّهُ أَكْبَرُ

«Allohu Akbar» (2. marta)

(*Alloh Buyukdir.*)

لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ

«Laa ilaaha illallaah» (2. marta)

(*Allohdan o'zga iloh yo'q.*)

Azon sadosi shunchalar go‘zalki, «Alloh» so‘zi bilan boshlanib, Buyuk «Alloh» so‘zi bilan tugaydi.

Payg‘ambarimiz Muhammad *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)*
«Hajjatul vido‘» [So‘nggi *vidolashuv haji*]dan qaytayotganlarida, Makka va Madinaning o‘rtasidagi **«G‘adir»** degan makonda to‘xtab, xutba o‘qiydilar va xutbalarida hazrati Ali *(alayhis salom)*ni o‘zlaridan keyin **Xalifasi** etib tanlaydilar va butun musulmonlarning **Yo‘lboshchisi, Peshvosi** ekanligini u yerda hozir bo‘lgan hamma musulmonlarga e‘lon qilib, shunday bu Yuradilar: **مَنْ كُنْتُ مَوْلَاهُ فَهَذَا عَلِيٌّ مَوْلَاهُ** (*Men har kimning Peshvosi va Rahnamosi bo‘lsam, demak, bu Ali*^{*(alayhis salom)*} ham uning **Peshvosi va Rahnamosidir**).

Biz musulmonlar Alloh va Uning Payg‘ambarining farmoniga bo‘ysunib, ito‘at qilganimiz uchun azonda: **أَشْهَدُ أَنَّ عَلِيًّا وَليُّ اللَّهِ** (*Guvohlik beramanki, Ali*^{*(alayhis salom)*} Alloh tomonidan tanlangan **Xalifa va Peshvodir**)ni aytamiz.

IQOMAT

Iqomat azonga o‘xshash bo‘lib, u quyidagacha aytiladi:

اللَّهُ أَكْبَرُ

«Allohu akbar» (2.marta)

Alloh Buyukdir!

أَشْهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ

«Ashhadu allaa ilaaha illalloh» (2. marta)

(Guvohlik beramanki, Allohdan o‘zga iloh yo‘q!)

أَشْهَدُ أَنَّ مُحَمَّدًا رَسُولُ اللَّهِ

«Ashhadu anna Muhammadar Pasurulloh» (2. marta)

(Guvohlik beramanki, Muhammad (sallallohu alayhi va olihi vasallam)

Allohning Payg‘ambaridir!)

أَشْهَدُ أَنَّ عَلِيًّا وَلِيُّ اللَّهِ

«Ashhadu anna Aliyyav valiyyulloh» (2. marta)

(Guvohlik beramanki, Ali (alayhis salom) Allohning tanlagan

Xalifa va Peshvosidir!)

حَيِّ عَلَى الصَّلَاةِ

«Hayya alas solaati» (2. marta)

(*Namozga shoshiling!*)

حَيِّ عَلَى الْفَلَاحِ

«Hayya alal falaah» (2. marta)

(*Najot yo'liga shoshilinglar!*)

حَيِّ عَلَى خَيْرِ الْعَمَلِ

«Hayya alaa xoyril amal» (2. marta)

(*Yaxshi amal tomoniga shoshiling!*)

قَدْ قَامَتِ الصَّلَاةُ

«Qod qomatis solaah» (2. marta)

(*Darhaqiqat, Namoz barpo bo'ldi*)

اللَّهُ أَكْبَرُ

«Allohu Akbar» (2. marta)

(*Alloh Buyukdir.*)

لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ

«Laa ilaaha illallaah» (1. marta)

(*Allohdan o'zga iloh yo'q.*)

QANDAY NAMOZ O‘QIYMIZ?

Qibla tomoniga yuzlanib, Allohdan qo‘rqqan holda quyidagacha namoz o‘qishni boshlaymiz:

Niyat:

Misol uchun ertalabki subh namozini o‘qimoqchi bo‘lsak, Allohning rizoligini nazarga olgan holda subh namozini qurbatan ilalloh ya‘ni: «Allohga yaqin bo‘lish uchun», deb niyat qilamiz.

Namozni o‘qish uchun niyat qilinayotganda, niyatni tilga olish, ya‘ni: to‘rt rak‘at namozni Allohning farmonini bajarish uchun o‘qiyman deyish va hatto niyatni qalbdan o‘tkazish lozim emas. Balki, agar namoz o‘qiyotganda qaysi amalni bajarishligini bilib tursa va undan so‘raganlarida nima amalni bajarayotganligini ayta olsa, o‘qiyotgan namozida niyatga ega ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

Qiyom (Turish)

Takbiratul ihrom aytilayotgan vaqtdagi turganlik holati va shuningdek, ruku‘ qilishdan oldingi turganlik holati «**Qiyom**» deb ataladi va namozning rukni, ya‘ni: Ustuni hisoblanadi. Ruku‘dan oldingi turgan holatga «rukuga bog‘langan **Qiyom**» deb aytiladi. Namozning rukni boshqa vojib amallardan farqlanib, agar inson namozning rukni bo‘lgan amallarni bajarmasa, xoh bilib turib yoki adashib va unutgani sababli bajarmasa va shuningdek, o‘sha amallarni ortiqcha bajarsa, o‘qigan namozi botil (bekor) bo‘ladi va qaytadan o‘qishi lozim.

Lekin Hamd va biror bir sura o‘qilayotgan vaqtdagi turgan hol «**Qiyom**» va ruku’dan keyingi turgan hol «**Qiyom**», namozning rukni hisoblanmay, agar bilmagan holda u tark etilsa, namozga ziyon yetkazmaydi.

Takbiratul ihrom:

(Barcha narsalardan uzilib, Allohni Buyuk deb bilgan holda Unga yuzlanish)

Ikki qo‘lni quloqlargacha ko‘tarib, «Allohu Akbar» deb, so‘ngra qo‘llar pastga tushiriladi. (suratda ko‘rsatilgan).

Takbiratul ihrom



اللَّهُ أَكْبَرُ

«Allohu Akbar»

(*Alloh Buyukdir!*)

Fotiha

Takbiratul ihromdan so‘ng hamd surasini o‘qiyimiz, undan keyin ixlos surasini va yoki shunga o‘xshash sura o‘qiyimiz.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

Bismillahir Rohmanir Rohiym.

(Mehribon va Rahmli Alloh nomi bilan.)

الْحَمْدُ لِلَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ

Alhamdu lillahi Robbil alamiyn.

(Barcha hamd-maqtov, olamlar murabbiysi [bo‘lmish] Allohga xos.)

الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

Ar-Rohmanir Rohiym .

(U Alloh) Mehribon va Rahimli Zotdir.)

مَلِكِ يَوْمِ الدِّينِ

Maliki yavmiddiyn.

(U Alloh) Jazo kunining Egasidir.)

إِيَّاكَ نَعْبُدُ وَإِيَّاكَ نَسْتَعِينُ

Iyyaka na‘budu va iyyaka nasta‘iyn.

(Sengagina ibodat qilamiz va Sendangina madad so‘raymiz.)

اهْدِنَا الصِّرَاطَ الْمُسْتَقِيمَ

Ihdinas sirotol mustaqiym.

(O‘zing bizni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qilgin.)

صِرَاطَ الَّذِينَ أَنْعَمْتَ عَلَيْهِمْ

Sirotol laziyna an'amta alayhim

(Bizlarni shunday kishilarning yo'liga boshlaginki, Sen O'zing ularga ne'mat bergansan.)

غَيْرِ الْمَغْضُوبِ عَلَيْهِمْ وَلَا الضَّالِّينَ

g'oyril mag'zuubi alayhim valazzooliyn.

(Ular g'azabga duchor bo'lmaganlar va zalolatga uchramagan- adashmaganlar.)

Ixlos surasi

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

Bismillahir Rohmanir Rohiyim.

(Mehribon va Rahmli Alloh nomi bilan)

قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ

Qul huval Lohu Ahad.

(“Ey Payg'ambar s.a” ayting: U Alloh yolg'iz Zotdir.)

اللَّهُ الصَّمَدُ

Allohus Somad.

(Alloh Behojatdir.)

لَمْ يَلِدْ وَ لَمْ يُولَدْ

Lam yalid valam yuvlad.

(U tug'magan va tug'ilmagandir.)

وَ لَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ

Valam yakun lahu kufuvan Ahad.

(Va hech kim U Zotga teng bo'la olmas.)



Ruku'

Suratda ko'rsatilgandek, ikki qo'lni tizzalar ustiga qo'yib, ushbu zikrni aytamiz:

سُبْحَانَ رَبِّيَ الْعَظِيمِ وَ بِحَمْدِهِ

«Subhaana robbiyal aziymi va bihamdih»

(Buyuk parvardigorim (har qanday aybu-nuqsondan) Pokdir va men Unga hamdu sanolar aytaman). Yoki 3 marta ushbu سُبْحَانَ اللَّهِ «subhaanalloh» «Alloh Pokdir» zikrni takrorlaymiz.


Ruku'dan turgandan so'ng, badan orom bo'lgan holda deyiladi:

سَمِعَ اللَّهُ لِمَنْ حَمِدَهُ

«sami'allohu liman hamida»

Alloh Unga hamdu-sano aytgan kimsani eshitur.

Shundan keyin «**Allohu Akbar**» deb sajdaga boramiz.



Sajda

Suratda ko'rsatilganidek Alloh taolo uchun sajd qilib bunday deymiz:

سُبْحَانَ رَبِّيَ الْأَعْلَىٰ وَبِحَمْدِهِ

«Subhana robbiyyal a'laa va bihamdihi»

(Oliy maqom va Yuksak parvardigorim (har qanday aybunuqsondan) Pokdir va men Unga hamdu sanolar aytaman).

Yoki 3 marta **اللَّهُ سُبْحَانَ** «subhaanalloh» (Alloh Pokdir) takrorlaymiz.




Sajda qilgan vaqtda badanning yetti a'zosi yerga tegishi lozim: *pehana, qo'lning ikki kafi, ikki tizza, ikki oyoqning bosh barmoqlari.*

Sajdadan boshni ko'tarib, o'tirgan holda bunday deymiz.

أَسْتَغْفِرُ اللَّهَ رَبِّي وَأَتُوبُ إِلَيْهِ

«Astag'firulloha robbiy va atuubu ilayh»

(Parvardigorim bo'lmish Allohdan mag'firat va kechirishini surayman va U tomonga qayturman).



So‘ngra yana bir marta sajdaga borib, yuqoridagi zikrni aytamiz:

سُبْحَانَ رَبِّيَ الْأَعْلَىٰ وَبِحَمْدِهِ

«Subhaana robbiyyal a’laa va bihamdihi»

(Oliy maqom va yuksak Parvardigorim (har qanday aybunuqsondan) Pokdir va men Unga hamdu sanolar aytaman).

Yoki 3 marta سُبْحَانَ اللَّهِ «subhaanalloh» (Alloh Pokdir) takrorlaymiz.

(Sajda paytida pok va najas bo‘lmagan tuproqqa yoki tuproqdan yasalgan muhrga bosh qo‘yiladi.)

Shuning bilan birinchi rak'at tugaydi.

Ikkinchi rak'at uchun turayotganda, bunday deymiz:

بِحَوْلِ اللَّهِ وَ قُوَّتِهِ أَقُومُ وَأَقْعُدُ

«Bihavllillaahi va quvvatihii aquumu va aq'ud»

(Allohning bergan kuch-quvvati bilan turaman va o'tiraman).

Ikkinchi rak'atda ham birinchi rak'at amallarini takrorlaymiz. Fotiha va ixlos suralarini o'qiyimiz va ikki suradan so'ng qunut duosini o'qiyimiz.





Qunut

Qunutda ikki qo'lni yuqoriga ko'tarib, deymiz:

اللَّهُمَّ صَلِّ عَلَى مُحَمَّدٍ وَآلِ مُحَمَّدٍ

«Allohumma solli alaa Muhammadin va aali Muhammad»
(Xudoyo! Muhammad va uning Ahli-Bayti (xonadoniga) salavot va salom yo'llagin).

So'ngra deymiz:

رَبَّنَا آتِنَا فِي الدُّنْيَا حَسَنَةً وَفِي الْآخِرَةِ حَسَنَةً وَقِنَا عَذَابَ النَّارِ

«Robbana aatinaa fid-dunyaa hasanatan va fil aakhirati hasanatan va qinaa azaaban-naar»
(Parvardigoro, bizga dunyoda yaxshilik va oxiratda yaxshilik ato qilgin va bizni jahannam olovining azobidan saqlagin!).



Tashahhud (*guvohlik bermoq*)

Qunutdan so‘ng, ruku’ va ikki sajdani bajarib, o‘tirgan holda tashahhud o‘qiyamiz. Suratda tashahhuddagi holat ko‘rsatilgan.

Tashahhudda bunday deymiz:

أَلْحَمْدُ لِلَّهِ أَشْهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ وَحْدَهُ لَا شَرِيكَ لَهُ

«Alhamdu lillaahi ashhadu allaa ilaaha illallohu vahdahu
laa shariyka lahu.»

(Hamdu sano maxsus Alloh uchundir, guvohlik beramanki, Allohdan o‘zga iloh yo‘q, U tengi bo‘lmagan Yagona Zotdir).

وَ أَشْهَدُ أَنَّ مُحَمَّدًا عَبْدُهُ وَرَسُولُهُ

«Va ashhadu anna Muhammadan abduhuu va rasuluh»

(Va guvohlik beramanki, Muhammad (sallallohu alayhi va olihi
vasallam) Uning Bandasi va Payg‘ambaridir).

اللَّهُمَّ صَلِّ عَلَى مُحَمَّدٍ وَ آلِ مُحَمَّدٍ

«Allohumma solli alaa Muhammadin va aali
Muhammad.»

(*Muhammad* (sallallohu alayhi va olihi vasallam) va uning *Ahli-Bayti*
(xonadoniga) salom va salavotlar yubor).



Salom

Tashahhuddan so‘ng, quyidagicha salom beriladi:

أَلْسَلَامُ عَلَيْكَ أَيُّهَا النَّبِيُّ وَرَحْمَةُ اللَّهِ وَبَرَكَاتُهُ

«Assalaamu alayka ayyuhan-nabiyyu va rohmatal-lohi va
barokaatuh»

(*Salom sizga ey Payg‘ambar! va Allohning rahmati va
Uning barakotlari sizga bo‘lsin!*).

السَّلَامُ عَلَيْنَا وَعَلَىٰ عِبَادِ اللَّهِ الصَّالِحِينَ

«Assalaamualaynaa va alaa ibaadillaahis solihiyin»
(*Bizga va Allohning solih bandalariga salom bo‘lsin!*).

أَلْسَلَامُ عَلَيْكُمْ وَرَحْمَةُ اللَّهِ وَبَرَكَاتُهُ

«Assalaamu alaykum va rohmatullohi va barokaatuh»
(Salom sizlarga va Allohning rahmati va Uning barakotlari (sizlarga) bo'lsin!).

Salom tugagach, 3 marta **اللَّهُ أَكْبَرُ** (Allohu Akbar) deyish bilan namoz tugaydi.

Har bor «Allohu Akbar» deganda ikki qo'l quloqlargacha ko'tariladi.

Har bir musulmon uchun bir kecha-kunduzda vojib bo'lgan namozlar **17 rak'at** bo'lib, **2 rak'at subh** (*bomdod*) namozi ufq ko'tarilgach, **4 rak'at zuhr** namozi tushgi vaqtida va undan so'ng **4 rak'at asr** namozi va **3 rak'at mag'rib** namozi quyosh botgandan so'ng va undan keyin **4 rak'at isho** (*xuftan*) namozi o'qiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan namozlar o'z vaqtida o'qilishi lozim.

Agar mag'rib namozini o'qimoqchi bo'lsak, ikkinchi rak'atning tashahhudidan keyin, salom bermay o'rnimizdan turib, quyidagi zikrni **3 marta** takrorlaymiz:

سُبْحَانَ اللَّهِ وَالْحَمْدُ لِلَّهِ وَلَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ وَاللَّهُ أَكْبَرُ

«Subhaanallohi valhamdu lillaahi va laa ilaaha illallohu
vallohu akbar»

(Alloh Pokdir va hamd-maqtov maxsus Alloh uchun va Allohdan o'zga iloh yo'q va Alloh Buyuk Zot).

Yoki 3 marta **سُبْحَانَ اللَّهِ** «subhaanallohi» (Alloh Pokdir)ni takrorlaymiz.

Shundan keyin ruku'ga borib, so'ng ikki sajda qilib, undan keyin esa tashahhud aytib, salom beriladi. Shu bilan 3 rak'atli mag'rib namozi tugaydi.

Ammo, agar 4 rak'at (zuhr, asr, isho namozlarini) o'qimoqchi bo'lsak, 3-rak'at tugagach, tashahhud va salom bermay ikki sajdadan keyin o'rnimizdan turib, 3-rak'atdagi zikrni takrorlab, ruku'ga borib, ikki sajda qilib, tashahhud aytiladi va undan so'ng salom berib namoz tugatiladi.

Namoz vojibotlari

- 1. Niyat**
- 2. Qiyom (turgan holda bo'lish).**
- 3. Takbiratul ihrom**
- 4. Ham va sura qiroat qilish**
- 5. Ruku' qilish**
- 6. Sajda**
- 7. Zikr (Ruku' va Sajdada o'qiladigan zikr)**
- 8. Tashahhud**
- 9. Salom berish**
- 10. Tartib (aytib o'tilgan tartibda namoz amallari ketma-ket bajarilishi kerak, agar amallarning o'rni o'zgartirilsa, namoz botil bo'ladi).**
- 11. Muvolat (namoz amallarini ketma-ket bajarish)**
- 12. Tuma'niyna (amallarni bajarganda badan orom holda bo'lishi)**

Namozni botil qiladigan narsalar

1. Namoz shaklini buzadigan ishni qilish, masalan: qarsak chalish yoki o‘ng va so‘l tomonga qarash.

2. Qasddan gapirish, lekin agar Qur‘on oyati yo duo o‘qisa, namoz botil bo‘lmaydi.

3. Qahqaha bilan kulmoq, ammo tabassum namozni botil qilmaydi.

4. Dunyo ishlari uchun yig‘lamoq, ammo agar Allohdan qo‘rqib yig‘lasa, namozga zarari bo‘lmaydi.

5. Yemoq va ichmoq hatto kichik narsa bo‘lsa ham namozni botil qiladi, ammo agar tishlarning orasida qolgan bo‘lsa, uni yutishlik namozga zarar yetkazmaydi.

6. Namoz o‘qiganda qo‘llarni bir-birining ustiga qo‘yish namozni botil qiladi, chunki, bu amal Payg‘ambarimiz *Muhammad* (sallallohu alayhi va olihi vasallam) ning sunnatlaridan emas.

7. Fotiha surasini o‘qib bo‘lgandan so‘ng, qasddan «**omin**» deyishlik, chunki, bu amal ham payg‘ambarimiz *Muhammad* (sallallohu alayhi va olihi vasallam)ning sunnatlaridan emas.

Vojib namozlar

1. Yavmiya namozlari (subh, zuhr, asr, mag'rib va isho).

2. Iyd namozlari (hayit namozlari); Ushbu namozlar Imom zamon (imom Mahdiy *(Alloh kelishlarini tezlashtirsin)*) kelganlaridan so'ng vojib bo'ladi, ammo bizning hozirgi zamonimizda esa o'qish mustahabdir.

3. Oyot namozlari; Zilzila bo'lganda, oy yoki quyosh tutilganda, yashin, chaqmoq, momaqaldiroq, qizil va qora rangli quyunlar, shiddatli yog'in va to'fonlar kabi qo'rqinchli tabiiy hodisalar ro'y berganda, oyot namozi vojib bo'ladi.

4. Jum'a namozi.

5. Nazr namozi; Agar inson ma'lum bir rak'at namoz o'qishni nazr qilganda, o'qishi vojib bo'ladigan namozlar.

6. Otaning qazo namozlari, dunyodan o'tganidan so'ng katta o'g'ilga vojib bo'ladi.

Qaysi makonlarda namoz o‘qisa bo‘ladi?

Har makonda namoz o‘qisa bo‘ladi, lekin masjidida namoz o‘qish afzaldir.

Namoz vaqti yetib kelganda, namoz o‘qimoqchi bo‘lsak, namoz o‘qiladigan makon quyidagi shartlarga ega bo‘lishi lozim.

«**G‘asbiy**» bo‘lmasligi kerak, ya‘ni: Egasi rozi bo‘lmagan makon bo‘lmasligi lozim.

Namoz makoni harakatda bo‘lmasligi kerak, masalan: poyezd, uchoq, uchqich va avtobus kabi makonlarda harakat qilayotganida namoz o‘qib bo‘lmaydi, lekin nochor holda qolgan vaqtda, harakatli makonda ham namoz o‘qisa bo‘ladi.

Namoz o‘qiladigan makonning yuqori qismi turib bo‘lmaydigan darajada past bo‘lmasligi kerak va shuningdek, ruku’ va sajda qilishga to‘sqinlik qiladigan tor joy bo‘lmasligi lozim.

Namoz o‘qiydigan joy najas bo‘lmasligi kerak, ammo agar najas bo‘ladigan bo‘lsa, najosat a‘zolarga tegmasligi uchun quruq bo‘lishi shart.

Sajda qiladigan yer, ikki tizzaning joyidan 4 barmoq miqdoricha baland bo‘lmasligi kerak.

Alloh taolo o‘qigan namozimizni va qilgan ibodatlarimizni o‘z dargohiga qabul aylasin!

O'z vaqtida o'qing namoz

*Doim qiyom bo'lma, bo'lmagin mag'rur
Yaratgan oldida ruku' qilib tur
Peshanang har qancha bo'lsa ham oqil
Sajda qil maxluq chun avvali shudir
Bo'lsang giryon az tars Xudo giryon qil
Solih amal savobingni najot bil
Gunohdan qoch, kofir bo'lma, amal chun
Javobi bor, so'roqlovchi u Jalil
Namozsiz odamlar bu dunyoda ko'r
Bilmaslar dunyoda nimadir surur
Oltin, zar, sarvatdan olarkan quvonch
Hech bilmas: hayotda peshanasi sho'r
Bu hayot bermaydi hech kimga lazzat
Kim boylikni quvar, kim yiydi faqat
Hammasi o'tginchi, dastgiring savob
«E voh» dema kelsa o'lim haqiqat
Dardimning davosi, malhami sen yor
To'siq, dovonlarning barhami sen yor
Oxirat sababi bo'lsam ham o'zim
Har onim, bor- yo'g'im, hamdamim sen yor
Ey Xoliq, maxluqman osiy, gunahkor
Bandangman gunohlar ichida nochor
Yig'layman shahidlar motamida zor
Aylama qabrimni boqiyda sen tor
Dardlarning davosi, boqiyga safar
Qo'rqaman gunohlar qilmasin zarar
Kechir, tavba qildim, avf ayla G'affor
Pok qilib qiyom qil oxir ro'z mahshar*

Shoir: Bohodir Zabih o'g'li